

ЎТМИШГА НАЗАР

4 - МАХСУС СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

СПЕЦИАЛЬНЫЙ ВЫПУСК - 4

LOOK TO THE PAST

SPECIAL ISSUE - 4



Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

«Ўтмишга назар» илмий журнали таҳририй маслаҳат кенгаши
редакционный совет научного журнала «Взгляд в прошлое»
Editorial board of the scientific journal Looking into the past

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Зияева Доно Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори, Телави
давлат университети, Грузия

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори, Телави
давлат университети, Грузия

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети, Қозоғистон

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент кимё - технология институти

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Рахмонкулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Гоффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат тиббиёт институти

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Теймураз Ахалмосулишвили
профессор, Телави давлат
университети, Грузия

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Республикаси
Фанлар академияси

Джоробекова Айнуэр Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Дипломатия академияси,
Қозоғистон Республикаси

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Санпова Камола Давляталиевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори, профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор
Россия ФА, Санкт-Петербург
Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор
Давлат тарихи институти, Қозоғистон

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор
Ал-Фаробий номидаги Қозоғистон
Миллий университети, Қозоғистон

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон миллий университети

Алиева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети

Талапов Бахриддин Алижанович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Одилов Абдор Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

1. Доно Зияева ЭРОН САФАРНОМАЛАРИ ВА МЕМУАР АСАРЛАРИ ТАРИХИЙ МАНБА СИФАТИДА.....	6
2. Санобар Шадманова ЎЗБЕКИСТОН ШАҲАРЛАРИ КЛАССИФИКАЦИЯСИ ВА ТИПОЛОГИЯСИ (1917-1941 ЙИЛЛАР).....	13
3. Надира Маҳкамова ЎРТА ОСИЁ МИЛЛИЙ-ҲУДУДИЙ ЧЕГАРАЛАНИШ МАСАЛАСИНИНГ СОВЕТ ДАВРИ АДАБИЁТЛАРИДА АКС ЭТИШИ.....	20
4. Қаҳрамон Алманов ИЛК ЎРТА АСРЛАР УСТРУШОНА ТАНГАЛАРИ.....	29
5. Шахноза Абдурахимова 1985-1991 ЙИЛЛАРДАГИ АҲОЛИ МУРОЖААТЛАРИДА СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ТИЗИМИНИНГ АКС ЭТИШИ.....	39
6. Zebiniso Axmedova OLIMLARNING AHMAD DONUSH IJODI VA FAOLIYATIGA QARASHLARI.....	47
7. Гулчеҳра Аҳмедова СУРХОНДАРЁ БАХШИЛАРИ.....	54
8. Komiljon Arziyev SHIMOLIY-BAQTRIYA MOZOR-QO`RG`ONLAR O`RGANILISH TARIXI (eramizdan avvalgi II asrlar oxiri va eramizning III asrlariga).....	59
9. Мансур Бойсариев ДИАСПОРА ТУШУНЧАСИНИНГ ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАР КЕСИМИДА РИВОЖЛАНИШ ТАРИХИ.....	65
10. Шерзод Баҳранов РОССИЯНИНГ ЎРТА ОСИЁ БИЛАН ҚЎҚОН ОРКАЛИ ОЛИБ БОРГАН ЧОЙ САВДОСИ ТАРИХИДАН (XIX-аср охири ва XX-аср бошларида).....	74
11. Феруза Бобожонова БУХОРО АМИРЛИГИДАГИ МАДРАСАЛАРНИНГ ҚУРИЛИШИ, МОДДИЙ-ХЎЖАЛИК ТАЪМИНОТИ ВА ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ ҚИЛИШ МАСАЛАЛАРИ.....	80
12. Назокат Бозорова СУРХОНДАРЁЛИКЛАРНИНГ ФРОНТ ВА ФРОНТ ОРТИДАГИ ЖАСОРАТИ.....	94
13. Шербек Ёдгоров МИСРДАГИ ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ МУАММОЛАРНИНГ ДИНИЙ ЭКСТРЕМИЗМ ВА РАДИКАЛИЗМНИНГ ЁЙИЛИШИГА ТАЪСИРИ.....	100
14. Бехзод Исабеков СУЮРЛИТЕПА ЁДГОРЛИГИ ТЎҒРИСИДА МУЛОҲАЗАЛАР.....	108

15. Дилфуза Исмоилова, Нор Бердиев XIX АСР ОХИРИ - XX АСР БОШЛАРИДА ТУРКИСТОН ЎЛКАСИДА КОНЧИЛИК ВА МЕТАЛЛУРГИЯ ТАРИХИДАН.....	113
16. Фарходжон Исматуллаев ЕВРОПА ИТТИФОҚИ БИЛАН ҲАМКОРЛИК – ЎЗБЕКИСТОН ТАШҚИ СИЁСАТИНИНГ УСТУВОР ЙЎНАЛИШЛАРИДАН БИРИ СИФАТИДА.....	121
17. Руфина Каюмова ЎЗБЕК ЖАНГЧИЛАРИНИНГ ЖАСОРАТЛАРИ УРУШ ДАВРИ ХАТЛАРИ САТРАЛАРИДА.....	129
18. Oybek Klichev, Nishona Hasanova SITORAI MOXI XOSA MUZEYI BINOLARINING TUZILISHI.....	135
19. Хушнудбек Мамадалиев ФАРҶОНА ВОДИЙСИДА “ЯНГИ ШАҲАР” ЛАРНИНГ ПАЙДО БЎЛИШИ ВА УЛАРДАГИ ЎЗГАРИШЛАР.....	141
20. Erkinjon Maxmudov BXSR HUKUMATINING VAQF MULKLARIGA BO'LGAN MUNOSABATI.....	152
21. Темур Мўминов ИБРОҲИМ МЎМИНОВ ПОРТРЕТИГА ЧИЗГИЛАР.....	157
22. Ғайратхон Мухтаров ЧОТҚОЛ ТОҒ ТИЗМАСИ ПЕТРОГЛИФЛАРИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ.....	166
23. Жамшид Перемкулов СОВЕТ ДАВРИДА САНОАТ ШАҲАРЛАРИ ТАШКИЛ ҚИЛИШ СИЁСАТИ ВА УНИНГ ОҚИБАТЛАРИ (ТОШКЕНТ ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА).....	173
24. Зафар Раҳманов ЧУСТ ЎТРОҚ ДЕҲҚОНЧИЛИК МАДАНИЯТИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ВА ВОҲА ЖОЙЛАШУВ ТИЗИМИНИНГ БОШЛАНИШИ.....	183
25. Элёр Раҳмонов ФАРҶОНА ВОДИЙСИДА КАМ ТАЪМИНЛАНГАН ВА ЁШ ОИЛАЛАРНИ ИЖТИМОИЙ ҲИМОЯЛАШ ЖАРАЁНИ.....	191
26. Зокир Рустамов 1920-1930 ЙИЛЛАРДА ЎЗБЕКИСТОН, ТУРКИЯ ВА ЭРОНДА АМАЛГА ОШИРИЛГАН ИЖТИМОИЙ-МАДАНИЙ ИСЛОҲОТЛАР.....	199
27. Azamat Sanakulov MARKAZIY OSIYODA SIYOSIY JARAYONLARDAGI XALQ DIPLOMATIYASINING AHAMIYATI VA O'RNİ.....	205
28. Нодир Сафаров РОССИЯ-БУХОРО АЛОҚАЛАРИНИНГ ХОРИЖИЙ ТАРИХШУНОСЛИГИ ТАҲЛИЛИ.....	213

29. Анора Тоғаева ЎЗБЕКИСТОН ШАҲАРЛАРИДА СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ТИЗИМИ: АҲВОЛИ ВА МУАММОЛАРИ (1950-1980 йиллар).....	219
30. Фарход Усманов 1920-1930 ЙИЛЛАРДА ЎЗБЕКИСТОНДА БОЛАЛАР ҚАРОВСИЗЛИГИ: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР.....	226
31. Икромжон Умаров БАДАШ – КЎҲИТАНГТОҒ ҚИШЛОҚЛАРИ АҲОЛИСИНИНГ ҚАДИМИЙ МУСИҚИЙ САНЪАТИ.....	238
32. Гулнора Фарманова Н.И.ВЕСЕЛОВСКИЙ ВА УНИНГ АФРОСИЁБДАГИ АРХЕОЛОГИК ИШЛАРИ (АРХЕОЛОГИК ТАДҚИҚОТ УСУЛЛАРИНИНГ БИРЛАШИШ ТЎҒРИСИДА).....	245
33. Madina Chorieva XX-XXI ASRLAR TARIXSHINOSLIGIDA SO'NGGI MANGIT AMIR SAYID OLIMXON.....	250
34. Шахло Хусанова БУЮК ИПАК ЙЎЛИДАГИ МИНГТЕПА ШАҲРИ.....	255
35. Фурқат Тошбоев, Наргиза Каримова УСТРУШОНАНИНГ ҚАДИМГИ ШАҲАРЛАРИ ВА УЛАРНИНГ БУЮК ИПАК ЙЎЛИ САВДОСИДАГИ ЎРНИ.....	261

ЎТМИШГА НАЗАР ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ LOOK TO THE PAST

Komiljon Doniyorovich Arziyev,
O`zRFA Arxeologik tadqiqotlar instituti
II-bosqich doktoranti

SHIMOLIY-BAQTRIYA MOZOR-QO`RG`ONLAR O`RGANILISH TARIXI (eramizdan avvalgi II asrlar oxiri va eramizning III asrlariga)

For citation: Kamiljan D.Arziyev, ON THE HISTORY OF THE STUDY OF THE TUMULUS OF NORTHERN BACTRIA (at the end of the II century bc - III century ad). Look to the past. 2020, Special issue 4, pp.59-64

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9599-2020-SI-4-8>

ANNOTASIYA

Mustaqillik o`zbek xalqiga o`zining haqiqiy tarixidan voqif bo`lish, dunyoda hech bir xalqdan kam emasligini anglash imkonini berdi. Sug`d, Baqtriya, Xorazm, Shosh, Ustrushona, Farg`ona kabi o`lkamizning ko`plab tarixiy hududlarida minglab yillar davomida dunyo siyosati, madaniyati va dunyoqarashiga katta ta`sir ko`rsatgan jarayonlar amalga oshganki, buni nafaqat yurtimiz balki ko`plab mamlakatlarda olib borilayotgan tadqiqotlar va manbalar isbotlab turibdi. XX asrning oxirida Shimoliy Baqtriya hududida tadqiqotchilar M.M.Dyakonov, A.M.Mandelshtam, B.A.Litviniskiy kabi keng miqyosda tizimli ravishda mozor-qo`rg`onlar o`rganilmadi. Bishkent vodiysida aniqlangan mozor-qo`rg`onlari, jumladan To`pxona, Aruktoy, Tulxar va Qashg`ar qabrlari bilan davriy o`xshashligi va qabrlardan chiqqan topilmalarning qiyosiy o`xshashligi bor.

**Kalit so`zlar:** M.M.Dyakonov, A.M.Mandelshtam, B.A.Litviniskiy, Shimoliy Baqtriya, mo`zor-qo`rg`onlar, chorvadorlar madaniyati, To`pxona, Aruktoy, Tulxar, Rabot, qabrlar, daxmalar, nauslar.

Камилжан Даниёрович Арзиев,
Институт археологических исследований
Академии Наук Республики Узбекистан
II-курс докторант

К ИСТОРИЮ ИЗУЧЕНИЯ ПОГРЕБАЛЬНЫ-КУРГАНОВ СЕВЕРНОЙ БАКТРИИ (в конце II века до н.э - III век н.э)

АННОТАЦИЯ

Независимость позволила узбекам узнать свою истинную историю, понять, что они не меньше, чем любая другая нация в мире. Во многих исторических регионах нашей страны, таких как Согдийская, Бактрия, Хорезмская, Шошская, Уструшная, Ферганская, на протяжении тысячелетий происходили процессы, оказавшие огромное влияние на мировую политику, культуру и мировоззрение. исследования и источники в странах-участницах доказывают это. В конце XX века на территории Северной Бактрии такие исследователи, как М.М. Дьяконов, А.М. Мандельштам, Б.А. Литвинский, не изучали крупномасштабных

систематических курганов. Существуют периодические сходства с могилами, найденными в Бишкекской долине, включая гробницы Топханы, Аруктова, Тулхара и Кашгара, а также находки гробниц.

Ключевые слова: М.М.Дьяконов, А.М.Мандельштам, Б.А.Литвинский, Северная Бактрия, курганы, скотоводство, Тупхона, Аруктау, Тулхар, Рабат, грунтовых, могилых, наусов.

Kamiljan D. Arziev

Institute for Archaeological Research
Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan
II-year doctoral student

ON THE HISTORY OF THE STUDY OF THE TUMULUS OF NORTHERN BACTRIA (at the end of the II century bc - III century ad)

ABSTRACT

Independence has allowed the Uzbek people to know their true history, to realize that they are no less than any other nation in the world. In many historical regions of our country, such as Sughd, Bactria, Khorezm, Shosh, Ustrushna, Fergana, for thousands of years there have been processes that have had a great impact on world politics, culture and worldview. research and sources in plab countries prove it. At the end of the XX century in the territory of Northern Bactria researchers such as MM Dyakonov, AM Mandelstam, BA Litvinsky did not study large-scale systematic burial mounds. There are periodic similarities with the tombs found in the Bishkek Valley, including the tombs of Topkhana, Aruktov, Tulkhar and Kashgar, and the findings of the tombs.

Index Terms: M.M.Dyakonov, A.M.Mandelstam, B.A. Litvinsky, Northern Bactria, Kurgan, cattle breeding, Tuphona, Aruktau, Tulkhar, Rabat, unpaved, grave, naous.

1. Кириш ва долзарблиги:

Tarixga bo'lgan e'tibor, ayniqsa yurtimiz tarixini yoritishga xolisona yondashuv bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib kelmoqda. Bu yana shunisi bilan muhimki, endilikda nafaqat yoshlar, balki katta avlod ham tarixni har qanday mafkuraviy tazyiqlardan xoli tarzda o'rganishi, erishilgan muvaffaqiyatlar qatori yo'l qo'yilgan kamchiliklar va xatolardan saboq chiqarishi uchun ham muhim ahamiyatga egadir.[1, C.3] Mustaqillik o'zbek xalqiga o'zining haqiqiy tarixidan voqif bo'lish, dunyoda hech bir xalqdan kam emasligini anglash imkonini berdi. Istiqloldan keyingi davr ichida xalqimizning azaliy milliy qadriyatlari tiklanib, ma'naviy yuksalish sari yuz tutdi, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan noyob moddiy madaniyat namunalari bo'lgan munosabat tubdan ijobiy tomonga o'zgardi.[2, C.3] Yurtimiz sarhadlari dunyoning ko'hna madaniyat markazlaridan biri hisoblanadi. Sug'd, Baqtriya, Xorazm, Shosh, Ustrushona, Farg'ona kabi o'lkamizning ko'plab tarixiy hududlarida minglab yillar davomida dunyo siyosati, madaniyati va dunyoqarashiga katta ta'sir ko'rsatgan jarayonlar amalga oshganki, buni nafaqat yurtimiz balki ko'plab mamlakatlarda olib borilayotgan tadqiqotlar va manbalar isbotlab turibdi. Jumladan, Zardushtiylik ta'limotining paydo bo'lishi, dunyo dini hisoblangan Buddaviylik dinining rivojlanishi va tarqalishida ajdodlarimiz muhim rol o'ynaganliklari rad etib bo'lmaydigan tarixiy haqiqatdir. Shu bilan birga o'rta asrlarda ajdodlarimiz islom dini va madaniyatini yuksak darajaga ko'targanliklari va ularning yaratgan bebaho asarlari hozirda ham islom dini va madaniyatini o'rganishda dasturamal bo'lib xizmat qilayotgani fikrimizni yana bir bor tasdiqlaydi. Ayni vaqtda vatanimiz hududlarida Qadimgi Xorazm, Qadimgi Baqtriya, Kushon, Qang', Dovon, Somoniylar, Xorazmshohlar, Temuriylar kabi yirik davlatlar shakllangan va faoliyat yuritgan bo'lib, ularning dunyo sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi beqiyosdir. [3, C.6] Yurtimiz va dunyo sivilizatsiyasi rivojiga ulkan hissa qo'shgan, ko'plab tarixiy voqea-hodisalarga guvoh bo'lgan vatanimiz hududlaridan biri Baqtriya. Baqtriya o'lkasining tarixi faqatgina bir mamlakat yoki xalqning

tarixi bo'lmay, balki dunyo tarixining ajralmas bir bo'lagidir. Uning madaniyati jahon madaniyatining shakllanishiga katta hissa qo'shib, insoniyat tarixida o'chmas iz qoldirgan.

2. Metodlar va ўрганилиш даражаси:

Maqola tarix va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarda qabul qilingan qiyosiy taxlil, obyektivlik, tarixiy ketma-ketlik, izchillik, qiyosiy taqqoslash tamoyillari asosida yoritilgan.

3. Tadqiqot natijalari:

Qadimgi Baqtriya hududi hozirgi O'zbekiston va Tojikistonning janubiy hududlari, Turkmanistonning shimoli-sharqiy hududi va Afg'onistonning hududini o'z ichiga olib, u shimolda qadimgi Sug'diyona, janubda va janubi-sharqda Araxosiya va Panxara, g'arbda esa Marg'iyona hududlari bilan chagaradosh bo'lgan. Ilmiy adabiyotlarda Baqtriyaning O'rta Osiyo respublikalari hududiga kirgan qismiga "Shimoliy Baqtriya", Afg'onistonga qarashli qismiga nisbatan esa "Janubiy Baqtriya" iborasini ishlatish qabul qilingan. Baqtriya eroncha so'z bo'lib, boxtar zamini, yani sharqdagi o'lka ma'nosini bildiradi.

Baqtriya o'zining qulay geografik o'rni va tabiiy sharoiti bilan qadimdan odamlarni o'ziga jalb qilib kelgan. Tekshirishlar ilk bor bu o'lkada odamlar qadimgi tosh davrida yashaganliklarini ko'rsatmoqda. Hozirda bu yerdan kishilik jamiyati taraqqiyotining turli davrlariga oid Teshiktosh, Machay, To'da, Dalvarzintepa, Xolchayon kabi yodgorliklarning mavjudligi aniqlangan. [4, C.3] Xalqimiz o'tmishini chorvadorlar madaniyatidan alohida tasavvur etib bo'lmasa-da, chorvadorlar tarixini o'rganishga sobiq sho'rolar davrida, afsuski bazi hollarda hozirgi kunda ham ikkinchi darajali masala sifatida e'tibor qaratilgan. [5, C.3] Tarixiy manbalardan ma'lumki Baqtriya sarhadlarida o'troq xalqlar bilan bir qatorda chorvador qabilalar ham yashab kelganlar. Bu ko'chmanchi chorvador qabilalarning Baqtriyaga qilgan qilgan harbiy yurishlari tufayli bo'lgan. Ko'chmanchi chorvadorlar moddiy madaniyatini o'rganishda yani, (qabrshunoslik)ning shakllanishida mozor-qorg'onlar juda muhimdir. Mozor-qo'rg'onlarni tadqiq qilinishi xalqlarning madaniyati, tarixi, diniy qarashlari, etnogenezi, antropologiyasi, etnologiyasini o'rganishda muhim ahamiyatga egadir. [6, C.213] Baqtriya tarixini o'rganishda ham mozor-qo'rg'onlarning o'rni muhimdir. Shimoliy Baqtriya hududi ham o'z bag'rida ko'plab tarixiy hodisalarga guvoh bo'lgan tarixiy va arxeologik topilmalarni saqlamoqda. O'rta Osiyoda ko'chmanchi chorvadorlar moddiy madaniyatini o'rganish dastlab XIX asrning 2-yarmidan boshlandi Turkiston havaskor arxeologlar to'garagi a'zolari tomonidan boshlangan. Bu izlanishlar natijasida chorvadorlar tarixi bilan bog'liq ko'plab tarixiy manbalar o'rganilgan. Jumladan, ko'chmanchi chorvadorlar moddiy madaniyatini o'rganish dastlab M.I.Veselovskiy nomi bilan bog'liq, u 1884 yil Farg'ona vodiysiga yuboridi. Yuzga yaqin qabrlarni ko'zdan kechirdi, faqat 5 ta qabr o'g'irlanmagan ekan, ulardan qovunchi madaniyatiga xos sopol buyumlar, taqinchoqlar, tosh qurollar topilgan. [6,C.214] Shimoliy Baqtriya hududida esa mozor-qo'rg'onlarni tadqiq qilish ishlari 1946-1948-yillarda Sug'd-Tojik ekspeditsiyaning Kofirnigan bo'limi boshlig'i M.M. Dyakonovning Hisor tog' tizmasining janubi-sharqiy yonbag'irlari (Kobadiyon vohasi) Kofirnigan daryosining quyi havzasida joylashgan To'pxona mozor-qo'rg'onlari bilan bog'liqdir. M.M.Dyakonov To'pxonadan jami 96 ta qabrni ochib o'rgandi. Qabrlar turli davrlarga eneolit va bronza asosan kushon davriga oid edi. Shuningdek Bishkent vodiysida ham qazish va qidirish ishlarini olib bordi. [8, C.3] 1951 yilda S. S. Chernikov tomonidan bu yerda 7 ta mozor-qo'rg'on aniqlandi, ularning barchasi talon-taroj qilingan edi. To'g'ri Shimoliy Baqtriya hududida mozor-qo'rg'onlarni o'rganish ishlari XIX asrning 2-yarmidan emas, nisbatan kechroq ikkinchi jahon urushidan so'ng boshlangan. Jumladan Baqtriya tarixini o'rganish, uning arxeologik yodgorliklarini tadqiq qilish ishlariga ikki asr bo'lmoqda. [9, C.3] Ma'lumki, bu hududni turli maqsadlarda tadqiq qilish ishlari Sobolev 1873 y, Mayev 1876-1879 yy, Mushketov 1886 y, Neustruyev 1915 y, [10, C.6] va boshqalar bilan bog'liq. Shimoliy Baqtriya hududida Arxeologik qazishma ishlarini birinchi bo'lib, 1926-1928 yillarda Sharq madaniyati muzeyi prof. B.P. Denike Eski Termiz atrofidagi Zurmula buddaviylik stupasini ochish ishlari bilan amalga oshirgan. Shuningdek 30-yillarda M.E.Massonning va 1936-1938 yillardagi Termiz arxeologik kompleks ekspeditsiyasi (TAKE) muhim ahamiyatga molikdir. [11, C.6] Yuqorida eslab o'tganimizdek urushdan so'ng, yani o'tgan asrning 50-yillardan Shimoliy Baqtriya hududida turli arxeologik yodgorliklarni tadqiq qilish va yangilarini izlab topish tizimli tarzda davom ettirildi, shu

jumladan mozor-qo'rg'onlarni o'rganish ishlari ham. M.M. Dyakonov 1953 yilgacha Bishkent vodiysida yana uchta mozor-qo'rg'onlarni aniqladi, ularning eng kattasi Aruktov edi. 1955-1959 yillarda Tojikiston arxeologik ekspeditsiyasi, Kofirnigan bo'limi boshlig'i A.M. Mandelshtam Tulxar, Aruktov va Qoqqum mozor-qo'rg'onlardan 357 ta qabrlarni ochib o'rgandi. Bu qabrlarning katta qismining xronologiyasi kushon davriga to'g'ri kelar edi. 1960-1962 yillarda Shimoliy Baqtriyaning g'arbiy qismida joylashgan (Turkmanistonda) Boboshov mozor-qo'rg'oni o'rganildi. [12, C.3] Boboshov mozor-qo'rg'onlarini o'rganish natijasida uning Bishkent vodiysi shuningdek Shimoliy Baqtriya mozor-qo'rg'onlari bilan o'xshashlik xususiyatlari aniqlandi. 1960-1964 yillarda natijalar yaxshiligiga qaramay Shimoliy Baqtriyaning g'arbiy qismida tadqiqot ishlari davom ettirilmadi. [13, C.4] XX asrning 60-70 yillarida Shimoliy Baqtriyaning g'arbiy, yani O'zbekistonning janubiy hududi Surxondaryo viloyatida mozor-qo'rg'onlarini Pugachenkova G.A., Rtveladze, E.V., Turg'unov B.A., Albaum.L.I., Pidayev.Sh.P., Staviskiy B.Ya kabi tadqiqotchilarning, Xalchayon, Dalvarzintepa, Eski Termiz, Qoratepa, Ayritom, Kampirtepa va boshqa yodgorliklardan chiqqan qabrlar, daxmalar, sag'analar, nauslarni o'rganish ishlari muhim ahamiyatga egadir. Shimoliy Baqtriya mozor-qo'rg'onlarini o'rganishda B.A. Litviniskiyning xizmatlari kattadir, u shuningdek Farg'ona vodiysi mozor-qo'rg'onlarini o'rganishdagi faoliyati ham salmoqlidir. B.A. Litviniskiy Shimoliy Baqtriya mozor-qo'rg'onlarini 1953-1954 yillardan o'rganish ishlarini boshlagan, E.A. Davidovich bilan yuqori Vaxsh daryosi bo'yidagi Ko'xna-Qal'a yodgorligida bir qancha qabrlarni ochgan. 60-70 yillarda E.G.G'ulomov qo'l ostida Dushanbe mozor-qo'rg'onlardagi qabrlar o'rganilib, ilmiy jamoatchilikka taqdim etildi. Shu bilan birga 1960-1961 yy, 1969-1971 yillarda B.A. Litviniskiy boshchiligida To'pxona mozor-qo'rg'onlarida keng ko'lamda tizimli ravishda muvaqqiyatli ishlar olib borildi. Natijada 600 kv.m maydondan 146 ta qabrlar ochib o'rganildi. 1972-yilda Tojikiston arxeologik ekspeditsiyasi B.A. Litviniskiy boshchiligida Baqtriya hududida Kushon davriga iod birinchi marta nauslar o'rganildi. Shuningdek 1973-yilda Bishkent vodiysi yodgorliklarini o'rganish uchun muxsus alohida guruh tuzuldi. Bu guruh a'zolaridan I.N. Medvedskoy, T.I. Sedovlar tomonidan 160 ta qabrlar qazib tadqiq etildi. [14,C.4] 1979-1980 yillarda Surxondaryo viloyati o'lkashunoslik muoyi rahbari Kozlovskiy V.A. va San'atshunoslik institutining o'zbekiston San'atshunoslik ekspeditsiyasi rahbari Rtveladze, E.V rahbarligida Surxondaryo viloyati Uzun tumanida jami 7 ta Bittepa mozor-daxmalari qazib o'rganilgan. 70-80 yillarda A. Abdullayev Hisor vodiysida, E.P. Denisov Dangaring vodiysi va Ksirov daryosining quyi oqimida, X.Y. Muhitdinov quyi Qizilsu daryosidagi Parxar tumanida tadqiqot va qazishma ishlarini olib bordilar. [15, C.192-198 cc] XX asrning oxirida Shimoliy Baqtriya hududida tadqiqotchilar M.M. Dyakonov, A.M. Mandelshtam, B.A. Litviniskiy kabi keng miqyosda tizimli ravishda mozor-qo'rg'onlar o'rganilmadi. Ammo A.E. Berdimurodov va Vang Jianxin 2017-2018 yillarda Shimoliy Baqtriya bir qismi hisoblangan O'zbekistonning janubi Surxondaryo viloyati Boysun tumanidagi Rabot mozor-qo'rg'onlarini O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Arxeologik tadqiqotlar instituti va Xitoyning shimoliy-g'arbiy universiteti hamkorlikda O'zbekiston – Xitoy xalqaro qo'shma arxeologik ekspeditsiyasi tizimli ravishda muvaqqiyatli tadqiqot ishlarini olib borildi. Rabot mozor-qo'rg'onlari Shimoli-g'arbiy Baqtriya, yani O'zbekiston hududida keng ko'lamda va zamonaviy texnologiyalar asosida o'rganilgan birinchi yodgorlik hisoblanadi. Rabot mozor-qo'rg'onlari Hisor tog' tizmasining janubi-g'arbiy qismidagi Boysuntog' yonbarida Boysun shahridan 2 km janubi-g'arbida joylashgan bo'lib, qazishma ishlari natijasida 94 ta qabr ochib o'rganilib muhim ma'lumatlar qo'lga kiritildi. Rabot mozor-qo'rg'onlaridagi qabrlarning davri miloddan avvalgi II asr oxiri – milodiy I asr boshlariga to'g'ri kelib, Bishkent vodiysida aniqlangan mozor-qo'rg'onlari, jumladan To'pxona, Aruktov, Tulxar va Qashg'ar qabrlari bilan davriy o'xshashligi va qablardan chiqqan topilmalarning qiyosiy o'xshashligi bor. Shuningdek 2019 yilda zamonaviy texnologiyalar orqali fanga nomalum bo'lgan Surxondaryo viloyati Uzun tumanida Serharakat yodgorligidan 38 ta qabrlar, Dehqon mozor-qo'rg'onlaridan 4 ta qabrlar Chinortepadan 20 ga yaqin nauslar ochib o'rganildi. Bu qabrlarning davriy sanasi milodiy I - III asrlar to'g'ri kelib, topilmalar Xalchayon, Dalvarzintepa va Bishkent vodiysi yodgorliklari topilmalariga o'xshashdir. 2018 yilda Bishkent vodiysidagi Qashg'ar yodgorligida qazishmalar olib borildi. Qablardan chiqqan topilmalar Shimoliy Baqtriyaning boshqa

mozor-qo'rg'onlaridagi topilmalarga o'xshashligi aniqlandi. 2016 – 2019 yillarda O'zbekiston – Xitoy xalqaro qo'shma arxeologik ekspeditsiyasi arxeologiya sohasida yaratilgan an'anaviy usullar bilan birga so'ngi yillardagi zamonaviy texnologiyalar asosida O'zbekiston va Tojikistonning janubiy hududlari, Surxondaryo va Kofirnigan daryolari havzalarida bronza, yueji va kushon podsholigi davriga oid ko'plab mozor-qo'rg'onlar tadqiq etildi.

4. Хулосалар:

2016 – 2019 yillarda O'zbekiston – Xitoy xalqaro qo'shma arxeologik ekspeditsiyasi arxeologiya sohasida yaratilgan an'anaviy usullar bilan birga so'ngi yillardagi zamonaviy texnologiyalar asosida O'zbekiston va Tojikistonning janubiy hududlari, Surxondaryo va Kofirnigan daryolari havzalarida bronza, yueji va kushon podsholigi davriga oid ko'plab mozor-qo'rg'onlar tadqiq etildi. Maskur tadqiqotlar davomida Shimoliy Baqtriyaning bizga hali no'malum bo'lgan madaniy, iqtisodiy, siyosiy, diniy tarixi bilan bog'liq bir qator jihatlar aniqlandi. Bunda Shimoliy Baqtriya hududida qadim zamonlardan ko'chmanchi chorvadorlar va dehqonlar doimo o'zaro yaqin qo'shnichilik munosabatlarida bo'lib kelganligi qayd etildi. Shimoliy Baqtriya hududiga doimiy ravishda qo'shni hududlardan ko'chmanchi chorvador qabilalarning kirib kelganligi, Shuningdek Baqtriya aholisi esa qo'shni hududlar bilan yaqin madaniy aloqada bo'lib kelganligi ham isbotlandi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, o'tgan ikki asr mobaynida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar Shimoliy Baqtriya tarixini o'rganishda muhim bosqich bo'ldi. Muzor-qo'rg'onlardan to'plangan qimmatli ma'lumotlar natijasida juda katta davr tarixini tiklashga muvaffaq bo'lindi. Bunda, albatta, M.I.Veselovskiy, M.M. Dyakonov, A.M. Mandelshtam, B.A. Litviniskiy kabi ilm ahli namoyondalarining xizmatlari beqiyosdir.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. “Tarix tilga kirganda...(maqolalar to'plami)” davriy to'plamning №12. “Arjumand media”Namangan 2020 y. 3-bet. (“When history speaks ... collection of articles” periodic set №12. –Namangan: “Arjumand media”, 2020. 3-p.)
2. Toshboyev F. Ustrushona chorvadorlarining antik davrdagi madaniyati. “Tafakkur qanoti” Toshkent. 2014.3-bet. (The Culture of cattle-breeders of Ustrushana during the Antiquity Period “Tafakkur qanoti” -Tashkent, 2014. 3-p)
3. Sandiboyev A.N. Arxeologik yodgorliklarni asrash va ulardan foydalanishga doir vazifalar // “Arxitektura va arxeologiya madaniy meros obyektlarini asrash va ulardan foydalanish masalalari” mavzusidagi ilmiy-amaliy konfrensiya materiallar to'plami. –Samarqand, 2019 y. 6-bet. (Tasks on preservation and use of archeological monuments // “Issues of preservation and use of objects of cultural heritage in architecture and archeology” Proceedings of the scientific-practical conference on the topic. Samarkand 2019. 6-p)
4. Pidayev Sh. Sirli kushonlar saltanati. “Fan” Toshkent.1990 y. 3-bet. (The kingdom of the mysterious Kushans. –Tashkent, “Fan”.1990. 3-p)
5. Toshboyev F. Ustrushona chorvadorlarining antik davrdagi madaniyati. “Tafakkur qanoti” Toshkent. 2014.3-bet. (The Culture of cattle-breeders of Ustrushana during the Antiquity Period. –Tashkent: “Tafakkur qanoti”, 2014. 3-p)
6. Обельченко О.В. К изучению курганных погребений в средней азии // ИМКУ №5 – Toshkent: “Фан”,1964г. 213 с. (To the study of burial mounds in Central Asia // HMCU №5 –Tashkent: “Фан”,1964. 213-p)
7. Обельченко О.В. К изучению курганных погребений в средней азии // ИМКУ №5 – Toshkent: “Фан” .1964г. 214 с.(To the study of burial mounds in Central Asia // HMCU №5 -Tashkent: Fan,1964. 214-p)
8. Литвинский Б.А, Седов А.В. Культы и ритуалы кушанской бактрии -Москва: «НАУКА», 1984 г. 3- с. (Cults and rituals of Kushan Bactria. –Moscow, «НАУКА», 1984. 3-p)

9. Ставиский .Б.Я. Кушанская бактрия: проблемы истории и культуры. -Москва: «НАУКА», 1977 г. 3- с.(Kushan bactria: problems of history and culture. –Moscow: «НАУКА», 1977. 3-р)
10. Пидаев Ш.Р. Поселения кушанского времени северной бактрии. –Toshkent: «Фан», 1978 г. 6-с. (Settlements of the Kushan period of northern Bactria. –Tashkent: “Фан”,1978. 6-р)
11. Пугаченкова Г.А. Халчаян. «Фан» Toshkent.1966 г. 6-с. (Khalchayan. –Tashkent: “Фан”, 1964. 6-р)
12. Литвинский Б.А, Седов А.В. Культы и ритуалы кушанской бактрии -Москва: «НАУКА»,1984 г. 3- с. (Cults and rituals of Kushan Bactria. -Moscow: «НАУКА»,1984. 3-р)
13. Мандельтам М.А. Памятники кочевников кушанского времени в северной бактрии. – Москва: «НАУКА»,1975 г. 4- с. (Monuments of the nomads of the Kushan period in northern bactria. –Moscow: «НАУКА»,1975. 4-р)
14. Литвинский Б.А, Седов А.В. Культы и ритуалы кушанской бактрии –Москва: «НАУКА»,1984 г. 4 - с. (Cults and rituals of Kushan Bactria. –Moscow: «НАУКА», 1984. 4-р)
15. Литвинский Б.А, Седов А.В. Культы и ритуалы кушанской бактрии –Москва: «НАУКА», 1984 г. 192-198 сс. (Cults and rituals of Kushan Bactria. –Moscow: «НАУКА», 1984. 192-198-pp)

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

LOOK TO THE PAST

№SI-4 (2020)

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000